



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARGA MILLIY AN'ANALARNI VA O'YINLARNI QADRLASHNI O'RGATISH

**Usmanova Aziza**

*Jizzax viloyati, Jizzax shahar 32-DMTT musiqa rahbari*

**Xusanova Inobat**


*Jizzax viloyati Jizzax shahar 32-DMTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otish haqida, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash haqida, bolalarni turli xil tarbiyaviy o'yinlar orqali mashg'ulotlarga qiziqtirish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *bog'cha, bolalar, mezon, o'qitish, o'rgatish, samaradorlik, fan, jarayon, ta'lim.*

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlari taqlid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o'zgacharoq faxmaydi, kuzatadi. O'yindagi ba'zi narsalarni o'yiniga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo'ladi. Shuning barobarida unda xodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi. Bolalar tabiat xodisalari, jonivorlar hayoti va xarakterlariga taqlid qilib, o'ynar ekan, shu qatorida ularning ma'nosini anglay boshlaydi. Asta-sekin hayotiy tajriba ortiradi. Qiyinchiliklarni yengishga o'rganadi. Unda harakat ko'nikmalariga hosil bo'ladi va tasavvuri tobora boyib boradi. Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchungina emas, balki ularga, aqliy, ma'naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plashib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar maqsadga erishi uchun farosati va tadbirkorligini, qat'iyatini ko'rsatish, jamiyat oldida faqat o'zining emas, balki o'rtoqlarining hatti harakatlari uchun ham javobgarlik hissini seza olishni o'zida shakllantirib borishi zarur. Harakatli o'yinlar masalan yurish, yugurish, sakrash, irg'itish yoki uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bilan harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Harakatlarning shakllanishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etib boradi, yurak va nafas olish tizimini faoliyati yakunlanadi.

Tarbiyachilar harakatli o'yinlarni tashkilotchisi va rahbarlaridir. Biz quyida ular uchun harakatli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish qoidalari xususida batafsil ma'lumot berib o'tamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan o'qib-o'sishlariga, chiniqishlariga organizm va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishni yordam beradi. Bolalarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan zarur bilimlarni berish va ulardan kerakli xarakter malakalarini hosil qilish lozim.





Ularda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy hislatlarni tarbiyalash zarur. Bundan tashqari, bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otish, harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish shart. Ularni o'tkazishdan tarbiyachi tashkilotchilik va tarbiyaviy roli juda ma'suliyatlidir. O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilim to'g'ri o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin turini tanlashning o'zi hamma vaqt xam tarbiyaviy vazifani bajaravermaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bemanilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakkam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir. Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi. Milliy qadriyatlar deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlar, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshoatlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari aytiladi. Masalan, o'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgo'yligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi, mulohaza va tafakkur bilan ish ko'rishi, tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlari bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuxratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o'rganish, munosib baholash borasidagi tarbiyachilarimizning faoliyatlari katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, milliy-ma'naviy, etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida milliylik va milliy ma'naiy qadriyatlar uyg'unligi mavzusida olimlar, yozuvchi va shoirlarning xayoti va ijod yo'liga oid bo'lgan videofilmlarni qo'yib ko'rsatib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.





### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. -T., 2010.
2. " Maktabgacha pedagogika" Sh. Sodikova. Toshkent - 2013
3. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. - 103-105-b.
4. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. Uzbek Scholar Journal, 4, 53-55.
5. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. Uzbek Scholar Journal, 4, 53-55.
6. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. Uzbek Scholar Journal, 4, 53-55.
7. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. Uzbek Scholar Journal, 4, 53-55.
8. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 2, 25-28.
9. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 2, 25-28.
10. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 2, 25-28.

